O’zbekistondagi atrof-muhit va bioximaxillikni muhofaza qilish bo’yicha islohotlar xalqaro simpoziumda

Xitoy Fanlar akademiyasining Shinjon Ekologiya va Geografiya institutida “Bioxilma-xillikni muhofaza qilish va qurg’oqchil hududlarni barqaror rivojlantirish” mavzusida xalqaro simpozium bo’lib o’tdi. Unda Yevropa, Afrika, Osiyo mamlakatlarining yirik olimlari hamda YuNESKO, Bioxilma-xillik bo’yicha konventsiya kotibiyati (Kanada), Xitoy atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi, O’zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti vakillari ishtirok etishdi.

Simpoziumda O’zR FA Botanika instituti direktori D.Dehqonov “O’zbekistonda bioxilma-xillikni muhofaza qilishning asoslari va zamonaviy tadqiqotlar” mavzusida ma’ruza qildi. Unda Davlatimiz Rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi, BMT Bosh Assambleyasining 75-76-sessiyalarida bildirilgan takliflari hamda Botanika instituti tomonidan bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo’yicha amalga oshirilayotgan ishlar va zamonaviy tadqiqotlar bo’yicha taqdimot qilindi.

Soha olimlari va ishtirokchi tashkilot vakillarida atrof-muhit va bioxilma-xillikni muhofaza qilish borasidagi yurtimizda olib borilayotgan ishlar katta taassurot va qiziqish uyg’otdi hamda navbatdagi xalqaro simpoziumni Fanlar akademiyasi Botanika institutida o’tkazish bo’yicha takliflar berildi.